

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

IBRAGIMOVA AZIZA RUZIBOYEVNA

**TABIY MONOPOLIYALARDA RAQOBATNI HUQUQIY TARTIBGA
SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Ibragimova Aziza Ruziboyevna

Tabiiy monopoliyalarda raqobatni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish 3

Ибрагимова Азиза Рузибоевна

Совершенствование правового регулирования конкуренции в естественных монополиях..... 25

Ibragimova Aziza Ruziboyevna

Improving the legal regulation of competition in natural monopolies..... 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 53

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

IBRAGIMOVA AZIZA RUZIBOYEVNA

**TABIY MONOPOLIYALARDA RAQOBATNI HUQUQIY TARTIBGA
SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Yu1746 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Ruzinazarov Shuhrat Nuraliyevich yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Aminjonova Matluba Ahmedovna yuridik fanlar doktori, professor Saidov Maqsud Norboyevich yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSs.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 5-avgust kuni soat 10.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1409-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 18-iyul kuni tarqatildi.

(2025-yil 18-iyuldagi 81-son reyestr bayonnomasi).

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y. Xabibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K. Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tabiiy monopoliyalar faoliyat yuritadigan sohalar o‘zining iqtisodiyotdagi keng qamrovliligi va ular tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga nisbatan talabning muntazam o‘shishi bilan xarakterlanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi uch yilda tabiiy monopoliya sohalari tovar va xizmatlariga nisbatan ehtiyojning o‘shishi yanada oshgani kuzatilmoqda. Xususan, energiya iste’moli 2.2% ga oshgan,¹ havo transporti sohasidagi umumiy operatsion foyda 516 milliard AQSh dollarini tashkil etgan,² neft talabining o‘shishi 102.2 million barrelga yetgan³. Tabiiy monopoliya sohalari tomonidan taqdim etilayotgan tovar(xizmat)lar ko‘lami esa har doim ham iste’mol hajmini to‘liq qamrab olmaydi.

Jahonda ayni sohalarni innovatsion yechimlar orqali rivojlantirish, mazkur sohalarda davlatning moliyaviy va tashkiliy yukini kamaytirish, iste’mol talabining maqbul va mos darajada ta’minlanishiga erishish maqsadida “aqlli tartibga solish” modellarini joriy qilish yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (MOIHT) 2030 strategiyasi dasturining ustuvor yo‘nalishlarida ham transport va energetika alohida ajratib ko‘rsatilgan⁴. Bu esa o‘z navbatida, tabiiy monopoliyalarni raqobat orqali transformatsiya qilishda nafaqat mintaqaviy iqtisodiy va huquqiy omillarni, balki zamonaviy davlatlararo integratsiya jarayonlarida qayd etilgan ustuvor yo‘nalishlarni ham inobatga olishni, transchegaraviy va milliy qonun hujjatlarining ta’sirini baholashning oqilona vositalarini tatbiq etishni zaruriyat qilib qo‘yadi.

Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan islohotlar natijasida o‘tgan besh yilda O‘zbekistonning Iqtisodiy murakkablik indeksidagi o‘rni 25 pog‘ona yaxshilanib, 105-o‘rindan 80-o‘ringa ko‘tarildi. Bugungi kunda 162 turdagi milliy mahsulotlarimiz “dunyo bozorlarida raqobat ustunligiga ega” deb e’tirof etilyapti⁵. 2025-yilning 1-aprel holatiga Tabiiy monopoliya korxonalarining davlat reyestriga 10 turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha 78 ta tadbirkorlik subyekti kiritilgan⁶. Darhaqiqat, tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiyalash huquqiy tartibga solishning g‘oyatda muhim obyekti bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, tabiiy monopoliya

¹ Energy Industry 2025. View Trends, Analysis and Statistics. URL: <https://yearbook.enerdata.net/total-energy/world-consumption-statistics>.

²Total energy consumption URL: <https://www.icao.int/SAM/Documents/2024-AT-CAPACITYBLDG>

³OPEC report unveils steady reserves amid shifting oil dynamics URL: <https://www.oilandgasmiddleeast.com/business/insights/opec-report-unveils-steady-reserves-amid-shifting-oil-dynamics>

⁴Среднесрочный обзор стратегии ЦАРЭС 2030/ Резюме первоначальных выводов и рекомендаций МАИ 2024/https://www.carecprogram.org/uploads/MTR-Summary-of-Initial-Findings-and-Recommendations_RUS-SOM2024.pdf

⁵Ўтган беш йилда Иқтисодий мураккаблик индексида Ўзбекистоннинг ўрни 25 поғона яхшиланди URL: https://uza.uz/uz/posts/otgan-besh-yilda-iqtisodiy-murakkablik-indeksida-ozbekistonning-orni-25-pogona-yaxshilandi_710900

⁶Tabiiy monopoliya subyektlarining ro‘yxati URL: <https://raqobat.gov.uz/xizmatlar/ochiq-malumotlar/tabiiy-monopoliya-subektlarining-davlat-reestri/>

sohasiga davlat ishtirokining hissasini kamaytirib xususiy mulkchilik subyektlarini bu jarayonga keng jalb qilish obyektiv voqelikka aylandi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Shu bois, ilmiy doktrinal va bu boradagi qonunchilikning rivojlanish tendensiyasi nuqtai-nazaridan tabiiy monopoliya sohasini transformatsiyalash maqsadida oqilona tartibga solish vositalarini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo'llash dolzarb masaladir. Ayni shu jihatdan, bu borada maxsus ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyati yuzaga keladi. Bayon qilingan holatlar dissertatsiya ishining dolzarb mavzuga bag'ishlanganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), 1995-yil 21-dekabrda fuqarolik kodeksi (1995, 1996), 2023-yil 3-iyuldagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyulda "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-son Farmoni, 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi "Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-163-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 256-son qarori va mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda tabiiy monopoliya qonunchiligi va nazariyasiga oid ayrim masalalar bilan bir qator olimlar shug'ullangan. Xususan, B.K.Xodjayev, B.S.Ulashov, D.X.Atamuratov, J.I.Boboyev, K.E.Mansurov, M.B.Usmonov, M.M.Haytboyev, M.H.Rustamboyev, O.Okyulov, T.U.Isakov, U.A.Qodirov, U.N.Do'stov, F.B.Ibratova, X.V.Burxanxodjayeva, Sh.B.Mamurov, Sh.J.Xakimov¹, N.F.Imomov,

¹ Ўзбекистон Республикасининг "Tabiiy monopoliyalar tўғрисида"gi Qonuniga sharh / Taхрир хайъати: M.X.Rustambоеv va бошқ. – Тошкент: "Шарқ". 2009. – 216 б.

Q.M.Mehmonov¹, X.M.Radjapov², I.N.Roxatov³lar tomonidan tabiiy monopoliyalarning huquqiy asoslariga oid masalalar tadqiq etilgan .

MDH mamlakatlarida A.A.Nikiforov, A.V.Klimenko, A.V.Trachuk, A.S.Laletina, V.V.Andrianov, D.Sh.Sanginov, Y.V.Malinnikova, Y.V.Xanova, Y.Y.Jernov, K.Y.Totyev, N.N.Marasanov, O.A.Grigoreva, O.V.Kolomiychenko, P.A.Kononkov, P.N.Gridnev, S.A.Frolov, T.L.Oganesyanyan, Y.Y.Radyukova⁴ kabi olimlar tabiiy monopoliya institutining turli jihatlari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan.

Tabiiy monopoliyalarga oid ayrim masalalar bir qator xorijiy olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Bular qatorida A.Kurno, J.Mill, L.Valras, A.Pig, A.Marshall, E.Chemberlin, J.Robinson, Phillips, Charles F., Dupuit J., Joskow, Paul L., Gert Bryuxe, Parker D., Hengeler Mueller, Kwoka, J.E, Andrei Shleifer kabilarning ishlarini ko'rib chiqish mumkin⁵.

Garchi ushbu olimlar tomonidan tabiiy monopoliyalar faoliyati bilan bog'liq masalalarning ayrim konseptual jihatlari muayyan xorijiy davlatlarda shakllangan ilmiy doktrina va qonunchilik asoslari tadqiq etilgan bo'lsa-da, mamlakatimizda zamonaviy sharoitlarda tabiiy monopoliyalarda raqobatni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga oid ustuvor va dolzarb masalalar maxsus fundamental tadqiqot obyekti sifatida kompleks o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ustuvor yo'nalish doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi tabiiy monopoliyalarda raqobatni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalariga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish tushunchasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar, tabiiy monopoliya genezisi, belgilari va prinsiplarini aniqlash;

tabiiy monopoliya subyektlari huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirish;

tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solishga oid qonunchilikning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatiga raqobatni transformatsiya qilish shakllari bo'yicha tavsiyalar berish;

tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini litsenziyalash, standartlash va sertifikatlashning huquqiy tartibi va asoslarini tahlil qilish;

¹Н.Имомов, Қ.Мехмонов, И.Тагаев. Энергия таъминоти соҳасида истеъмолчиларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари. – Тошкент: 2024. – 80 б.

²Раджапов Х. Табиий монополиялар соҳасида рақобатни шакллантиришнинг ҳуқуқий асослари. 03/2020 Юридик фанлар ахборотномаси – Вестник юридических наук – Review of law sciences.

³ Roxatov I.N. Tabiiy monopoliyalarni tartibga solish soddalashmoqda //International journal of scientific researches // VOLUME 6, ISSUE 2, 2024. 34-39-betlar.

⁴Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

⁵Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatiga raqobatni transformatsiya qilish shakllarini qo'llash amaliyotini yaxshilash yuzasidan tavsiyalar berish;

tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatida oqilona narxlarni (tariflarni) shakllantirishni huquqiy ta'minlash masalalarini tadqiq etish;

tabiiy monopoliya sohasida davlat ishtirokidagi korxonalar va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mulkiy asoslarining huquqiy rejimini o'rganish;

tabiiy monopoliya subyektlari ishtirokidagi shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy tabiatini o'rganish;

tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatida suiiste'mol qilishning oldini olish va ular javobgarligining oqibatlarini masalalarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda tabiiy monopoliyalar faoliyatida mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tabiiy monopoliya sohasini raqobat orqali transformatsiya qilishning huquqiy mexanizmlari tadqiq qilinib, tabiiy monopoliya sohasida raqobat muhitini shakllantirish, ya'ni tabiiy monopoliya sohasiga raqobatni joriy qilish imkoniyatlari, tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyatni amalga oshiradigan sohalarda raqobat muhitini shakllantirish raqobat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozimligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirib berilgan;

tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatiga raqobatni transformatsiya qilishning tashkiliy-huquqiy masalalari kompleks o'rganilib, tabiiy monopoliya sharoitlarida realizatsiya qilinadigan tovarlarning narxlarini (tariflarini) shakllantirilishining o'ziga xos xususiyatlari asoslab berilib, mustaqil bozor regulyatorlari faoliyatining alohida xususiyatlari tahlil qilingan;

tabiiy monopoliya subyektlarining huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyatlari asoslab berilib, ularning tashkiliy-huquqiy maqomi aynan yuridik shaxs sifatida bo'lishi asoslab berilgan;

asosiy faoliyati tabiiy monopoliya sharoitida tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va asosiy faoliyati tabiiy monopoliya sharoitida tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'lmagan xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqiy maqomini farqlash lozimligi asoslantirib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish, tabiiy monopoliya qonunchiligi, tabiiy monopoliya sohasiga raqobatni joriy

qilish shakllari, bozor uchun raqobat, mustaqil bozor regulyatori, tabiiy monopoliya subyektlari tushunchalariga mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi;

O‘zbekiston sharoitida tabiiy monopoliya sohasini raqobat orqali transformatsiya qilishning tabiiy monopoliya sohasidagi davlat korxonasini xususiylashtirish, davlat-xususiy sherikligi, bozor uchun raqobat shakllari samarali bo‘lishi mumkinligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xorijiy va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan bo‘lib, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy xulosa va amaliy takliflardan tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini huquqiy tartibga solish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishda, shuningdek “Raqobat huquqi”, “Biznes huquqi”, “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish” kabi yuridik fanlarini o‘qitish va metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tabiiy monopoliyalar faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatni amalga oshiradigan sohalarda raqobat muhitini shakllantirish bo‘yicha takliflari O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi normalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining 2025-yil 17-yanvardagi 162/02-11-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatni amalga oshiradigan sohalarda raqobat muhitini shakllantirishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

tabiiy monopoliya sharoitlarida realizatsiya qilinadigan tovarlarning narxlarini (tariflarini) shakllantirishga doir takliflari O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi 1-qismi normalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining 2025-yil 17-yanvardagi 162/02-11-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi tabiiy monopoliya sharoitlarida realizatsiya qilinadigan tovarlarning oqilona narxlarini (tariflarini) shakllantirishga xizmat qiladi.

tabiiy monopoliya subyekting huquqiy maqomiga taalluqli takliflari 2024-yil 1-maydagi “Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 256-son qarori bilan tasdiqlangan “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tabiiy monopoliya subyekti sifatida e’tirof etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 2-bandi normalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining 2025-yil 17-yanvardagi

162/02-11-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi tabiiy monopoliya subyektining huquqiy maqomining qonunchilikda aniq belgilanishiga xizmat qiladi.

asosiy faoliyati tabiiy monopoliya sharoitida tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'lmagan subyektlarning huquqiy maqomiga oid takliflari 2024-yil 1-maydagi "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 256-son qarori bilan tasdiqlangan "Xo'jalik yurituvchi subyektlarni tabiiy monopoliya subyekti sifatida e'tirof etish tartibi to'g'risida"gi nizomning 6-bandi normalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining 2025-yil 17-yanvardagi 162/02-11-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi asosiy faoliyati tabiiy monopoliya sharoitida tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'lmagan subyektlarning huquqiy maqomining qonunchilikda aniq belgilanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta maqola (2 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tuzilishi kirish, 9 ta paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning "*Tabiiy monopoliya sohalarini raqobat orqali transformatsiya qilishning huquqiy mexanizmlari*" deb nomlangan birinchi bobida tabiiy monopoliyalarni raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish tushunchasi, genezisi, belgilari va prinsiplari, tabiiy monopoliya subyektlari huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyatlari, tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solishga oid qonunchilikning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi tabiiy monopoliyalarni raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish tushunchasini tahlil qilishda ko'plab iqtisodchi (A.Kurno, A.Mareshall, E. Chemberlin, J.Robinson, Y.Y.Jernov, Tomas DiLorenzo, J.Dupuit, A.V.Trachuk, P.F.Kononkov, I.N.Roxatov) va huquqshunos (Phillips, F. Charles, Joskow, Paul L., Y. V.Malinnikova, X.M.Radjapov, P. N.Gridnev, S. A.Frolov, O.A.Grigoreva, I. N.Shankova, S.E.Jilinskiy, Rolf W Künneke, Areeda, Phillip E., Sh.Dehqonov) olimlarning fikr va qarashlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan. Mazkur munozara yakunlariga ko'ra "tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish" tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan:

"Tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish deganda, tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatida halol raqobat muhitini shakllantirish bilan bog'liq munosabatlarda tartibga solishning ta'sirini baholashning tashkiliy, texnik, iqtisodiy va huquqiy vositalar tizimidan foydalanishning ommaviy va xususiy-huquqiy mexanizmlari yig'indisi tushuniladi".

Tadqiqotchi tomonidan tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solishning bir qator xususiyatlari aniqlangan:

birinchidan, tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish maxsus tadqiqot obyekti hisoblanadi;

ikkinchidan, qonunchilikda tabiiy monopoliya subyektlari doirasi va maqomiga oid maxsus normalar mavjud;

uchinchidan, tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solishning ommaviy huquqiy va xususiy huquqiy tartibga solish usullaridan foydalaniladi;

to'rtinchidan, tabiiy monopoliyada raqobatni transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish dialektik jarayon bo'lib, muntazam ravishda texnologik yutuqlar va imkoniyatlarga asoslangan holda o'zgarishlarga uchraydi.

Shuningdek, tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish belgilari aniqlandi:

birinchidan, keng ma'noda tabiiy monopoliya resurslardan oqilona foydalanishda davlatning qat'iy monopol nazorat o'rnatilishi asosida shakllangan fuqarolik-huquqiy institut bo'lib, uning natijasi insonlarning hayotiy faoliyati uchun noyob, tovar muomalasida o'ziga xos narx (tariflar) asosida tartibga solingan va mulkiy qiymatga ega bo'lgan tovar va/yoki xizmatlardir. Tabiiy monopoliya sohasida ishlab chiqarish xarakterining o'zgarishi va raqamli texnologik taraqqiyot natijasida raqobat orqali transformatsiyalashuv jarayonlari ishlab chiqarishning yangi texnologik usullarini qo'llash va tabiiy monopoliya subyektlarining tovar va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini samarali qondirishning namoyon bo'lishi uzviy bog'liqdir. Tabiiy monopoliyalarning raqobat orqali transformatsiyalashuvi bu sohalarning muqobillariga (masalan, qayta tiklanadigan, muqobil energiya: shamol, quyosh energiyasi, kichik quvvatdagi elektr stansiyalar va h.z) xususiy mulk subyektlarini jalb qilish barobarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatini yaratmoqda. Tabiiy monopoliyalar sohasidagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishning muqobil usullarining namoyon bo'lishi sohaga raqobat muhitini

qo‘llab bo‘lmaydi, degan ilmiy yondashuvlarni inkor etadi. Bu ham o‘z navbatida, tabiiy monopoliya sohasini raqobat orqali transformatsiyalashning huquqiy tartibga ta‘sirini baholashning muhim omili sanaladi. Shu bois, fuqarolik huquqi doktrinasi nuqtai-nazaridan tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilish huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos maxsus obyekt bo‘lib hisoblanadi;

ikkinchidan, tabiiy monopoliya sohasini raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy ta‘minlash, nafaqat raqobat qonunchiligining umumiy qoidalarini, balki tabiiy monopoliya subyektlari raqobat muhitini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi. Chunki, fuqarolik huquqiy muomalada tabiiy monopoliya subyektlarining maxsus huquq subyektligi belgilarini aniqlashda ular bilan bog‘liq munosabatlarda iste‘molchilar va tabiiy monopoliya subyektlarining manfaatlari muvozanatiga rioya etish hamda raqobat muhitini shakllantirishda tartibga solish ta‘sirini baholashni taqozo etadi;

uchinchidan, tabiiy monopoliyalarni raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish, o‘z navbatida, ommaviy-huquqiy va xususiy-huquqiy tartibga solish elementlarini o‘z ichiga qamrab oladi;

to‘rtinchidan, tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solishga oid normalarni tizimlashtirish va uni unifikatsiya qilish aqlli tartibga solishning oqilona shakl va usullaridan foydalanishni taqozo etadi. O‘z navbatida, tabiiy monopoliyalarda raqobat muhitini shakllantirishda an‘anaviy shakl va usullarni qo‘llash o‘zining samarasini bermaydi, sohada raqamli va kreativ muqobil usullar asosida tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish munosabatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish lozim;

beshinchidan, tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini transformatsiyalashni huquqiy tartibga soluvchi milliy qonun hujjatlari tizimini inventarizatsiyadan o‘tkazish barobarida sohada raqobat muhitini huquqiy ta‘minlash bo‘yicha xorijiy davlatlarning eng yaxshi tajribasini olgan holda mutanosib tarzda takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotchi tomonidan tabiiy monopoliyalarni huquqiy tartibga solishda jahon tajribasi o‘rganilib, tartibga solishning turli modellari tahlil qilingan. Tabiiy monopoliyalarni tartibga solish modellari turli mamlakatlar guruhi bo‘yicha quyidagi tasnifga ega: rivojlangan davlatlar, rivojlanayotgan davlatlar va tranzit iqtisodiyotga ega davlatlar modellari. Rivojlangan davlatlarda tabiiy monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish raqobat (konsessiyalar, franshiza uchun savdolar) mexanizmlariga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Bu holat tabiiy monopoliyalar chegarasining kamayishiga, davlatning roli kamayishiga, muhofazalovchi tartibga solishning kuchayishiga, taqdim etiladigan xizmatlarga sifat standartlarining o‘rnatilishiga, monopol xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yilmasligiga xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlar modelining keng tarqalishi anglosakson va kontinental modellarda namoyon bo‘lgan. Anglosakson modeli (AQSh, Kanada) davlat tomonidan tabiiy monopoliyalarni tartibga solishning afzalliklari sifatida bozor mexanizmlarining o‘z-o‘zini tartibga solish usuliga ustuvorlik berilishi va monopol holatning ehtimoliy suiiste‘mol qilinishining oldini olishga e‘tibor qaratilishi bilan tavsiflanadi. Kontinental model (Avstriya, Germaniya, Shvetsiya) esa ijtimoiy yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Rivojlanayotgan davlatlarda tabiiy

monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish modellari anglosakson va kontinental modellar asosida shakllangan. Britaniyaning sobiq koloniyalari tariflar va sifat standartlarini belgilash bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan tartibga soluvchi organlarni yaratgan hamda umumiy (pretsedent) huquqni qo'llashga tayanadi. Kontinental huquqqa asoslangan Yevropa davlatlarining sobiq koloniyalari esa tabiiy monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solishning o'z tizimini shakllantirib, oldindan belgilangan tariflar va shartnomalarni qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'lgan regulyativ shartnomalar (konsessiyalar)dan foydalanadi hamda bu tizim fuqarolik huquqiga asoslangan. Ushbu modellarning kamchiliklari mustaqillik va shaffoflikning yo'qligi, institutsional beqarorlik hamda tartibga soluvchi tuzilmalar xodimlarining yetarlicha malakaga ega emasligidadir. Tranzit iqtisodiyotga ega davlatlarda tabiiy monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solishning ikki modeli shakllangan. Davlat modeli (postsovet makonining ko'pchiligi) tabiiy monopoliyalarni sohaviy vazirliklar tomonidan tartibga solish, me'yoriy-huquqiy bazaning takomillashmaganligi, asosan narx orqali tartibga solish usulidan foydalanish, ixtisoslashgan tartibga soluvchi organlar va xizmat ko'rsatish sifat standartlarining yo'qligi, narx belgilashda shaffoflik mavjud emasligi va subsidiyalash amaliyoti bilan xarakterlanadi. O'tish modeli (Markaziy va Sharqiy Yevropa hamda Rossiya) esa to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita tartibga solish vositalari va shartnomaviy shakllarga asoslanadi, strategik xorijiy investorlarni jalb qilish, kompaniyalar va xizmatchilarga investorlar tomonidan maxsus kafolatlar yaratishni o'z ichiga oladi. Bu esa davlatga korxonalar ustidan xususiylashtirishdan keyingi nazoratni saqlab qolish imkonini beradi. Dissertant tomonidan hozirgi kunda O'zbekistonning tabiiy monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish tendensiyasi tranzitiv iqtisodiyotga ega bo'lgan davlatlarning o'tish modeliga ko'proq mos tushishi, tadrijiy ravishda rivojlangan davlatlarning kontinental modeliga o'tish maqsadga muvofiqligi tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi ***“Tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini raqobat orqali transformatsiya qilishning tashkiliy-huquqiy masalalari”*** deb nomlanib, ushbu bobda tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini raqobat orqali transformatsiya qilishning huquqiy shakllari, tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini litsenziyalash, standartlash va sertifikatlashning huquqiy tartibi va asoslari, tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatida oqilona narxlarni (tariflarni) shakllantirishni huquqiy ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotchi tomonidan mazkur masalalarni tahlil qilishda Y.Y.Radyukova, O.A.Grigoreva, Parker D., Hengeler Mueller, O.V.Kolomiychenko, V.N.Vorojeykin, T.L.Oganesyan, Y.Anankina, V.Andrianov, A.Shegolev, A.A.Nikiforov, Kwoka, J.E., A.V. Klimenko, A.B. Julin, Y.P.Xanova, N.S.Molodsov, I.A.Sklyarov, A. V.Gubenko, Y.I.Rastova, A.R.Pankratova, Y.V.Barishnenkova, Y.V.Tkachenko, R.A.Yusupov, Sh.A.Begmatova, Y.V.Barinov, Depoorter Ben, Kearney C, Favotto I., K.Totev, Coursey, Don, R. Mark Isaac, and Vernon L. Smith, Shleifer Andrei, Laffont, Jean-Jacques, Jean Tirole kabi olimlarning fikr va qarashlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishilgan.

Tadqiqotchi tomonidan O'zbekiston sharoitida tabiiy monopoliya sohasini raqobat orqali transformatsiya qilishning tabiiy monopoliya sohasidagi davlat korxonasini xususiylashtirish, davlat-xususiy sherikligi, bozor uchun raqobat

shakllari samarali bo'lishi mumkinligi asoslantirib berildi. Dissertant tomonidan bozor uchun raqobat tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi hamda bozor uchun raqobatning belgilari tahlil qilindi. Xususan, bozor uchun raqobat deganda, tabiiy monopoliya bozoriga kirib muqobil monopol ishtirokchiga aylanish uchun bir necha raqobatchilarning o'zaro musobaqalashuvi tushuniladi.

Shuningdek, tadqiqotda mamlakatimizda tabiiy monopoliya sharoitlarida tovar(xizmat)larni taqdim etuvchi subyektlar faoliyatini litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirish borasidagi hujjatlar tegishli tarmoqlarning bevosita normativ-huquqiy hujjatlarida tarqoq holda aks etgani, bu boradagi tartibga soluvchi hujjatlarni unifikatsiya qilish va bir necha maxsus nizomlarni o'z ichiga qamrab olgan Vazirlar Mahkamasining qarorini qabul qilish maqsadga muvofiqligi asoslantirib berildi.

Dissertatsiyada mustaqil bozor regulyatori tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi, unga ko'ra mustaqil bozor regulyatori deganda, tabiiy monopoliya sharoitida faoliyat yurituvchi subyektlar faoliyatini narx (tarif) jihatdan tartibga soluvchi, ular tomonidan ishlab chiqariladigan tovar(xizmat)lar uchun oqilona narx belgilash vakolatiga ega bo'lgan subyekt tushuniladi. Shuningdek, mamlakatda boshlangan islohotlarning samarali izchilligini ta'minlash maqsadida bozor regulyatorlarining faoliyatini tartibga soluvchi, ularning faoliyat yuritish maqsadi, vazifalari, ular tayanadigan prinsiplar, regulyator faoliyat yuritadigan sohalar, regulyatorlarning huquqlari va majburiyatlari, regulyatorning hisobdorligi, regulyator faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati, regulyatorning javobgarligi masalalarini o'zida qamrab olgan hukumat qarori bilan tasdiqlanadigan "Mustaqil bozor regulyatorlarini tashkil etish konsepsiyasi"ni qabul qilish maqsadga muvofiqligi asoslab berildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "***Tabiiy monopoliya subyektlari raqobat faoliyatini xususiy huquqiy tartibga solishni takomillashtirish istiqbollari***" deb nomlanib, unda tabiiy monopoliya sohasida davlat ishtirokidagi korxonalar va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mulkiy asoslarining huquqiy rejimi, tabiiy monopoliya subyektlari ishtirokidagi shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy tabiati, tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatida suiiste'mol qilishning oldini olish va ular javobgarligining oqibatlarini tahlil qilingan. Ushbu masalalarni tahlil qilishda tadqiqotchi tomonidan N.N.Bulisheva, V.B.Isakov, S.N.Bratonovskiy, A.S.Laletina, O.A.Grigoreva, D.Sh.Sanginov, Ye.Nesterenko, V.R. Topildiyev, V.Y.Ergashev, N.F.Imomov, Q.M.Mehmonov, I.Tagayev, N.I.Kleyn, N. S.Molodsov, I.A.Sklyarov kabi olimlarning fikr va qarashlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishilgan.

Dissertatsiyaning mazkur bobida tabiiy monopoliya subyektlari faoliyati uchun muhim bo'lgan infratuzilma va uning tarkibiga kiradigan mulklarning o'ziga xos xususiyatlari, tabiiy monopoliya subyektlarining mulkiy asoslari bilan bog'liq masalalar tadqiq etilgan. Tadqiqotda, tabiiy monopoliya sohasiga kirish uchun talabgor bo'lgan subyektda har doim ham sohada faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan mulk (zaruriy texnologik majmua, quvur transporti, infratuzilma) mavjud bo'lmasligi, ammo talabgorning sohadagi malakasi hamda innovatsion ishlanmalari mavjud bo'lishi mumkinligi, tabiiyki, bu holatda zaruriy mulkiy kompleksiz sohada

faoliyat yuritib bo'lmashligidan kelib chiqib qonunchilikda tabiiy monopoliya sohalarida faoliyat yuritish uchun talabgor bo'lgan, tegishli amaliy ko'nikmalar va innovatsion ishlanmalariga ega, sohaga investitsiya kiritishga tayyor bo'lgan subyektlarga bunday davlat mulkiga egalik qilishga va (yoki) undan foydalanish uchun tabiiy monopoliya sohalarida faoliyat yuritayotgan boshqa subyektlar bilan teng sharoitlarni yaratish lozimligi asoslantirib berilgan.

Shuningdek, tabiiy monopoliya subyektlari va iste'molchi o'rtasida tuzilishi mumkin bo'lgan shartnoma turlari, shuningdek majburiy tartibda shartnoma tuzdirish holatlari tahlil qilingan. Tutashtirilgan tarmoq orqali gaz, neft va neft mahsulotlari, issiqlik energiyasi, suv bilan ta'minlash borasidagi maxsus normalarni o'zida aks ettirgan, bir so'z bilan aytganda tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan taqdim etiladigan tovarlar bilan ta'minlashga oid normalarni o'zida jamlagan yaxlit normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishi maqsadga muvofiqligi asoslantirib berilgan. Bundan tashqari tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaganligi oqibatida yuzaga keladigan javobgarlik masalalari, shuningdek, tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan yo'l qo'yiladigan suiiste'mollik holatlari, xususan, ustun mavqeni suiiste'mol qilish holatlarida huquqbuzarliklar oqibatida kelib chiqadigan javobgarlik masalalari tahlil qilingan.

XULOSA

“Tabiiy monopoliyalarda raqobatni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy hamda amaliy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Tadqiqotda tabiiy monopoliya sohalarida faoliyat yuritishga talabgor bo'lgan subyektlarning o'zlari faoliyat yuritishni istagan sohaga kirishdan oldin keng qamrovli marketing tadqiqotlari olib borishlari, talab va taklifdan kelib chiqib faoliyat yuritishlari, o'z faoliyatlarini o'zlari moliyalashtirishlari va mamlakatda tadbirkorlik faoliyati erkinligining rag'batlantirilishidan kelib chiqib tabiiy monopoliya sohalariga kirishda raqobatning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmashligiga oid qoidalar hozirgi davr talablariga javob bermasligi va bu holat sohaga kirmoqchi bo'lgan investorlarning tadbirkorlik faoliyatini cheklashi haqidagi xulosaga kelindi.

2. Tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish tushunchasiga quyidagi mualliflik doktrinal ta'rifi berildi: “Tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish deganda, tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatida halol raqobat muhitini shakllantirish bilan bog'liq munosabatlarda tartibga solishning ta'sirini baholashning tashkiliy, texnik, iqtisodiy va huquqiy vositalar tizimidan foydalanishning ommaviy va xususiy-huquqiy mexanizmlari yig'indisi tushuniladi”.

3. Tadqiqotda ilmiy-amaliy tahlillar asosida tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solishning quyidagi belgilari tavsiflab berildi: keng ma'noda tabiiy monopoliya resurslardan oqilona foydalanishda

davlatning qat'iy monopol nazorat o'rnatilishi asosida shakllangan fuqarolik-huquqiy institut bo'lib, insonlarning hayotiy faoliyati uchun noyob, tovar muomalasida o'ziga xos narx (tariflar) asosida tartibga solingan va mulkiy qiymatga ega bo'lgan boylik yaratadi. Tabiiy monopoliya sohasida ishlab chiqarish xarakterining o'zgarishi va raqamli texnologik taraqqiyot natijasida raqobat orqali transformatsiyalashuv jarayonlari ishlab chiqarishning yangi texnologik usullarini qo'llash va tabiiy monopoliya subyektlarining tovar va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini samarali qondirishning namoyon bo'lishi uzviy bog'liqdir. Tabiiy monopoliyalarning raqobat orqali transformatsiyalashuvi bu sohalarning muqobil sohalariga (masalan, qayta tiklanadigan, muqobil energiya: shamol, quyosh energiyasi, kichik quvvatdagi elektr stansiyalar va shu kabilar) xususiy mulk subyektlarini jalb qilish barobarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatini yaratmoqda. Bunday tabiiy monopoliyalar sohasidagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishning muqobil usullarining namoyon bo'lishi sohaga raqobat muhitini qo'llab bo'lmaydi, degan ilmiy yondashuvlarni inkor etadi, degan ilmiy xulosa asoslantirildi. Bu ham o'z navbatida, tabiiy monopoliya sohalarini raqobat orqali transformatsiyalashning huquqiy tartibga solish ta'sirini baholashning muhim omili sanaladi. Shu bois, fuqarolik huquqi doktrinasi nuqtai-nazaridan tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilish huquqiy tartibga solishning o'ziga xos maxsus obyekti bo'lib hisoblanadi;

ikkinchidan, tabiiy monopoliya sohasini raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy ta'minlash, nafaqat raqobat qonunchiligining umumiy qoidalarini, balki tabiiy monopoliya subyektlari raqobat muhitini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi. Chunki, fuqarolik huquqiy muomalasida tabiiy monopoliya subyektlarining maxsus huquq subyektligi belgilarini aniqlashda ular bilan bog'liq munosabatlarda iste'molchilar va tabiiy monopoliya subyektlarining manfaatlari muvozanatiga rioya etish hamda raqobat muhitini shakllantirishda tartibga solish ta'sirini baholashni taqozo etadi;

uchinchidan, tabiiy monopoliyalarni raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solish, o'z navbatida, ommaviy-huquqiy va xususiy-huquqiy tartibga solish elementlarini o'z ichiga qamrab oladi. Tadqiqotda o'tmishdan farqli ravishda, iqtisodiyotga davlat aralashuvini kamaytirish maqsadida tabiiy monopoliyalar sohasida halol raqobat muhitini shakllantirish, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlash, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik erkinligining kafolatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi, degan konseptual xulosaga kelindi. Shuni inobatga olib, fuqarolik muomalasida tabiiy monopoliyalarni raqobat orqali transformatsiyalashda nafaqat ommaviy-huquqiy, balki xususiy-huquqiy tartibga solishning chegarasini belgilash va unga monand holda norma ijodkorlik faoliyatining samaradorligini oshirishning obyektiv zaruriyati asoslantirildi;

to'rtinchidan, tabiiy monopoliyani raqobat orqali transformatsiya qilishni huquqiy tartibga solishga oid normalarni tizimlashtirish va uni unifikatsiya qilish aqlli tartibga solishning oqilona shakl va usullaridan foydalanishni taqozo etadi. O'z navbatida, tabiiy monopoliyalarda raqobat muhitini shakllantirishda an'anaviy shakl

va usullarni qo'llash o'zining samarasini bermaydi, sohada raqamli va kreativ muqobil usullar asosida tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish munosabatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish lozim;

beshinchidan, tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyatini transformatsiyalashni huquqiy tartibga soluvchi milliy qonun hujjatlari tizimini inventarizatsiyadan o'tkazish barobarida sohada raqobat muhitini huquqiy ta'minlash bo'yicha xorijiy davlatlarning eng yaxshi tajribasini unga mutanosib tarzda takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

4. Tabiiy monopoliyalar faoliyat yuritadigan sohalar aholining ijtimoiy, iqtisodiy hayoti uchun ta'sirchan sohalar ekanligini hisobga olgan holda tabiiy monopoliya subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli yuridik shaxs bo'lishi maqsadga muvofiqligi haqida ilmiy xulosa asoslantirilib berildi. Fuqarolik muomalasining hozirgi rivojlanish bosqichida yuridik shaxs tuzmasdan faoliyat yurituvchi subyektlarni tabiiy monopoliyalar sohalariga jalb qilishning murakkabligi bir qator iqtisodiy va texnologik omillarga hamda tovar bozoridagi raqobat muhitini shakllantirishning subyektiv va obyektiv xususiyatlari bilan bog'liqdir. Shuningdek, fuqarolik muomalasida tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan iste'molchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar narxlari belgilangan tariflaridan kelib chiqib shakllantiriladi va ularni texnologik ishlab chiqarishga sarflangan haqiqiy xarajatlari to'liq qoplamasligi tufayli davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ham muhtoj bo'ladi. Ayni shu asnod, tovar bozorlarida tabiiy monopoliyalar subyektlarining ishlab chiqarish xarajatlari muttasil ortib boradi, atrof muhitga zarar yetkazmaydigan, xavfsiz, energotejamkor zamonaviy raqamli texnologiyalarni o'rnatish ham katta sarf-xarajadni talab qiladi. Qolaversa, yuridik shaxs tuzmasdan faoliyatini tashkil etish uchun raqobat muhitida iste'molchi va tadbirkorlik subyektlarining muayyan turdagi tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan talab va ehtiyojlarini qondirish juda ko'plab murakkab konstruksiyali texnologik vositalarni ishlab chiqarishga joriy etish muayyan qiyinchiliklarni tug'diradi, degan xulosaga kelindi.

5. Tadqiqot ishida qonunchilik rivojlanishi tendensiyalari tahlil qilinib, tabiiy monopoliya sohalarini tartibga soluvchi qonunchilik tarmoq infratuzilmasi bor bo'lgan sohalarda uzatish operatorlari va taqsimlovchi operatorlarni ajratish amaliyotini mustahkamlanmoqda, ammo texnologik sharoit har doim ham bu amaliyotning foydali xususiyatlaridan samara olish imkonini taqdim etmayapti, degan xulosa shakllantirildi.

6. Tadqiqot natijasida tabiiy monopoliya subyektlarining yuridik shaxslarning tijoratchi bo'lmagan tashkilot tashkiliy-huquqiy shaklida faoliyat turlari bilan shug'ullanishi murakkab ishlab chiqarish va texnologik xususiyat kasb etganligi hamda iqtisodiy jihatdan foyda olish imkoniyati bo'lmamasligi ilmiy-amaliy asoslantirildi. Muallifning konseptual nuqtai-nazariga asosan, tabiiy monopoliya subyektlari fuqarolik muomalasida raqobatbardosh yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan salohiyatli tijoratchi tashkilot bo'lishi lozim. Xorijiy va milliy tajribaning ko'rsatishicha, tabiiy monopoliya tarmoqlarini rivojlantirish hajmdor sarmoyalarni talab qiladi va hatto, kichik tadbirkorlik subyektlari har doim ham biznesning ushbu turidan lozim darajada manfaatdor emas, qolaversa, jismoniy shaxslar va yuridik

shaxslarning tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan taqdim etilayotgan tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirish vazifasini bajarishi murakkab ishlab chiqarish va texnologik jarayon bo'lib, ular faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi, degan xulosaga kelindi.

